Dastlabki ma’lumotlar

# 2022 – yilning yanvar – iyun oylarida Xorazm viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022 – yilning yanvar– iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 8 589,4 mlrd so‘mni yoki 2021 – yilning mos davriga nisbatan 103,5 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 8 383,0 mlrd so‘mni (103,4 %), o‘rmon xo‘jaligida – 71,6 mlrd so‘mni (102,4 %), baliqchilik xo‘jaligida –134,8 mlrd so‘mni (105,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Xorazm viloyatining ulushi 6,3 % ni tashkil etdi.




**8 589,4** — Xorazm viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so‘m

01 — **8 383,0** — Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02 — **71,6** — O‘rmon xo‘jaligi

03 — **134,8** — Baliqchilik xo‘jaligi

## Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish surʼati




## Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2022– yilning yanvar– iyun oylari yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,6 %i– dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar, 0,8 %i – oʻrmon xoʻjaligi, 1,6 %i – baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi




2022– yilning yanvar– iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urganch (984,8 mlrd soʻm) va Xonqa (910,1 mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xiva shahri (34,9 mlrd soʻm), Tuproqqalʼa tumanini (194,7 mlrd soʻm) va Urganch shahrini (196,7 mlrd soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Viloyat koʻrsatkichidan (103,5 %) yuqori oʻsish surʼatlari Yangibozor (109,7%), Shovot (108,6 %), Bogʻot va Tuproqqalʼa (104,4 %) tumanlarida kuzatildi.

# Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2022– yilning yanvar– iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 8 325,4 mlrd so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,4 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 2 163,6 mlrd so‘mni (114,0 %), chorvachilik mahsulotlari– 6 161,8 mlrd so‘mni (100,1 %) tashkil qildi.

# Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)



## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 81,9 %i– dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 15,8 %i– fermer xo‘jaliklariga, 2,3 %i– qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)

2022– yilning yanvar– iyun oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumanida (25,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch shahrida (99,4 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Bog‘ot tumanida (4,7 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Tuproqqal’a tumanida (0,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Yangibozor tumanida (72,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (0,0 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2022– yilning yanvar – iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2 163,6 mlrd so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 26,0 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida sabzavot ishlab chiqarishning eng yuqori hajmi Bog‘ot (21,3 ming t.), Yangiariq (10,6 ming t.), Urganch Gurlan (10,5 ming t.), Gurlan (8,9 ming t.) tumanlarida kuzatildi.

# Don

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan jami 266,3 ming t. don (2021– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 26,5 %ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili jami don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,2 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, t.



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 66,9 ming t. kartoshka (2021– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 28,1 %ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 70,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Xorazm viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, t.



# Sabzavot

**Hajmi, ming t.**




**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 94,1 ming t. sabzavot (2021– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 7,2 % ga koʻp) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlili sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 75,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, t.



# Poliz mahsulotlari

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 8,9 ming t. poliz mahsulotlari (2021– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 110,9 %) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidan 73,2 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha poliz mahsulotlari yetishtirish hajmi, t



# Meva

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 34,6 ming t. meva (2021– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 104,3 % ) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 76,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha meva yetishtirish hajmi, t



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1,0 ming t. uzum (2021– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 113,2 % ) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 50,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, t



# Chorvachilik



2022– yilning yanvar– iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6 161,8 mlrd so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 100,1 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 74,0 %ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 89,1 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 0,7 %ga ko‘p), 561,6 ming tonna sut (0,9 %ga ko‘p), 244,2 mln dona tuxum (10,7 % ga kam) ishlab chiqarilgan, 6 550,6 t. baliq (5,2 %ga ko‘p) ovlangan.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 89,1 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar– iyun iga nisbatan 0,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Xorazm viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, t.



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 561,6 ming t. sut (2021– yilning yanvar– iyun iga nisbatan 0,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,4% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Xorazm viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, t.



# Tuxum

**Hajmi, mln dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 244,2 mln dona tuxum (2021– yilning yanvar– iyuniga nisbatan 10,7 % ga kam) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Xorazm viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi,tonna**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 6 550,6 tonna (2021– yilning yanvar– iyunga nisbatan 5,2 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 71,6 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Xorazm viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, t.



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,2 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 91,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,0 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim. Shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 15,6 % fermer xo‘jaliklariga, 80,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 4,4 %i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi. Otlar umumiy sonidan 12,6 % fermer xo‘jaliklariga, 86,5% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,9 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 14,0 % fermer xo‘jaliklariga, 61,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 24,3 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

# Yirik shoxli qoramollar

Soni, ming bosh




O‘sish sur’ati




Bosh soning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qora mollarning umumiy bosh soni 937,7 mingtaga etdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 50,0 mingtaga (1,0 %) ko‘paydi.

2021– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Xorazm viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 350,5 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 7,1 mingtaga (2,1 %) ko‘paydi.

2022– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 91,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, jami qo‘y va echkilarning 80,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 5,4 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 114 boshga (2,1 %) ko‘paydi.

2022– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 86,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



## Xorazm viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



# Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 286,7 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 141,8 mingtaga (2,3%) ko‘paydi.

2022– yilning 1– iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 61,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



## Xorazm viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 62-224-64-96
- 71-202-78-89